

ALISHER NAVOIY QIT'ALARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI ELEMENTLARINING POETIK FUNKSIYASI

Maxmudova Jasmina Muxtor qizi

BuxDPI 1-bosqich magistranti.

jasminmakmudova94@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20538919>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy qit'alarida xalq og'zaki ijodi elementlarining poetik funksiyasi tadqiq etiladi. Shoir qit'alarida xalq hikmatlari, maqollar, tasavvufiy qarashlar hamda xalqona tafakkur namunalarining badiiy talqini tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida Navoiy qit'alaridan namunalar asosida xalq og'zaki ijodiga xos motivlar, ramzlar va hikmatlarning poetik vazifasi yoritilgan. Natijada qit'a janrining xalq donishmandligini ifodalashdagi o'rni hamda Navoiy ijodida folklor an'analarning badiiy-estetik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, qit'a, folklor, xalq og'zaki ijodi, poetik funksiya, xalq hikmati, tasavvuf, badiiy talqin, xalqona tafakkur, poetika.

Abstract. This article examines the poetic function of folklore elements in Alisher Navoi's qit'as. Particular attention is paid to the artistic interpretation of folk wisdom, proverbs, Sufi ideas, and traditional modes of thinking reflected in the poet's works. Based on textual analysis of selected qit'as, the study reveals the poetic role of folklore motifs, symbols, and didactic expressions. The research demonstrates the significance of the qit'a genre in conveying folk wisdom and highlights the artistic and aesthetic value of folklore traditions in Navoi's literary heritage.

Keywords: Alisher Navoi, qit'a, folklore, oral folk literature, poetic function, folk wisdom, Sufism, artistic interpretation, traditional worldview, poetics.

Аннотация. В данной статье исследуется поэтическая функция элементов устного народного творчества в кытах Алишера Навои. Анализируются художественные интерпретации народной мудрости, пословиц, суфийских взглядов и народного мировоззрения, отражённых в произведениях поэта. На основе анализа отдельных кыт раскрываются поэтические особенности фольклорных мотивов, символов и нравоучительных идей. В результате исследования показана роль жанра кыта в выражении народной мудрости и выявлено художественно-эстетическое значение фольклорных традиций в творчестве Навои.

Ключевые слова: Алишер Навои, кыта, фольклор, устное народное творчество, поэтическая функция, народная мудрость, суфизм, художественная интерпретация, народное мировоззрение, поэтика.

KIRISH

Xalq og'zaki ijodi Alisher Navoiyning badiiy va ilmiy merosiga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatdi. Navoiy o'z asarlarida xalq ijodidagi ilg'or g'oyalarni, xalq orzu-umidlarini, qisqasi, xalq asarlaridagi gumanizmni buyuk san'atkorga xos yuksak mahorat bilan kuylaydi.

Chunonchi, Navoiydagi insonparvarlik, insonni ulug'lash, insonning aql-idrokiga, tafakkuriga ishonish, inson baxt-saodati uchun kurash – shoirning butun gumanizmi folklor asarlarida ham yetakchi o'rinni egallaydi.

Xalq ijodi Navoiy lirikasiga g'oyaviy tematikada, janrlar rang-barangligida, mahorat rivojida ta'sir ko'rsatdi. Bobokalon shoirimizning o'z she'riyatini ulug' insonparvar g'oyalar bilan sug'orishida; g'azal mulkining sultoni bo'lib qolishida; ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, muammo va boshqa janrlarda jozibador asarlar yaratishida; til va uslub, badiiy san'atlarda kashfiyotlar qilishida xalq ijodi bamisoli bir zamin vazifasini bajardi. Aminmizki, daho san'atkorning she'riyatdagi mahorat sirlari tobora ochilib, yoqlinlashib boraveradi. Alisher Navoiy she'riyatini ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan yuksak darajaga ko'tarishda xalqdan olingan maqollar va ular ruhida ijod qilingan hikmatlar bebaho ahamiyatga ega.

“Alisher Navoiy merosini tashkil etgan mavzu bepoyonligi va rang-barangligini, hayotiy hodisalar va poetik shakllarning ko'pchiligini o'rganish ham g'oyat ibratlidir”¹, deb yozadi shoir N.Tixonov. Atoqli navoiyshunos olim va faylasuf shoir Maqsud Shayxzoda Navoiy lirikasidagi badiiy san'atlarni, ayni vaqtda folklor bilan bog'liq badiiy san'atlarni ham nazarda tutib, o'rganishning hozirgi zamon poeziyamiz uchun nazariy va amaliy ahamiyatiga “...Bu an'anaviy san'atlarni tanqidiy ravishda baholab, ularda mavjud bo'lgan fazilatlarini yosh shoirlarimizga talqin qilgan, qudratli an'analarni sovet poeziyasining aslahaxonasiga qo'shib qo'ygan bo'lamiz”², deb juda to'g'ri xulosa chiqaradi. Aminmizki, Navoiy she'riyatiga folklor ta'sirini o'rganish ulug' shoir she'riyatining xalq bilan bog'lanish yo'lidagi ajoyib ichki sirlarini zamonamizning yosh qalamkashlariga ochib beradi, adabiyotni xalq hayoti bilan bog'lash yo'llarini o'rganishda mahorat maktabi bo'lib qoladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Navoiy lirikasidagi 16 lirik janrning har birida xalq og'zaki ijodining o'ziga xos namunalari topish mumkinligi ilmiy jihatdan dalillangan haqiqatdir. Bu janrlar – *g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarji'band, tarkibband, masnaviy, qasida, soqiyнома, qit'a, ruboiy, muammo, lug'z, tuyuq, fard* – har biri shoirning badiiy dunyosida xalqning milliy mentaliteti, urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini bilan uyg'unlashib, xalq og'zaki ijodining mazmunan chuqur va usluban boy ko'rinishlarini beradi. Bu holat Navoiy ijodining yuksak badiiy-ijtimoiy qadrini, xalqning ma'naviy va madaniy xazinasiga qo'shgan beqiyos hissasini yanada mustahkamlaydi.

Alisher Navoiy lirikasining xalq og'zaki ijodi bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatuvchi muhim bir janr bu – qit'adir. Ayniqsa, qit'alardagi fikrning yuksakligi, so'z tanlashdagi aniqlik, har bir misrada xalq donishmandligi bilan yo'g'rilgan hikmat va tanbeh unsurlarining mujassamligi bu janrni ham xalq og'zaki ijodi bilan mustahkam bog'laydi.

Qit'a – lirik janrlar orasida xalq og'zaki ijodiga eng yaqin turgan janrlardan biridir. Unda ko'pincha xalq maqollari, hikmatli so'zlar, urf-odatlar, axloqiy qadriyatlar to'g'ridan to'g'ri yoki badiiy talqin asosida ifodalanadi. Ayniqsa, Navoiy qit'alarida xalqning asrlar davomida shakllangan tushunchalari, qadriyatlarini, hatto ijtimoiy tanqid unsurlari ham o'z ifodasini topadi.

¹ Тихонов Н. Ассалом, Навоий! – Тошкент: “Шарқ юлдузи”, 1967. – Б. 19.

² Шайхзода М. Асарлар. 4-том. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 232.

Shunday ekan, endilikda Navoiy qit'alari orqali xalq og'zaki ijodining yangi badiiy qirralarini o'rganishimiz muhim va dolzarbdir.

*Foniyi mutlaq o'lmayin solik,
Anga yo'qtur umidi maqsadi kull.
Qaro tufroqg'a singmagan qatra,
Andin imkoni yo'q ochilmoq gul.*

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 525-bet)

Bu qit'a Alisher Navoiy ijodida xalq donishmandligi va tasavvufiy tafakkur uyg'unlashgan namunaviy parchadir. Unda inson ruhiy kamolotining zarur sharti – o'z “men”idan, dunyoviy istaklar va nafsdan voz kechish, ya'ni mutlaq foniy bo'lish g'oyasi ilgari suriladi.

“Foniyi mutlaq o'lmayin solik” deganda Navoiy tariqat yo'liga kirgan kishi, ya'ni solik agar o'zini to'la fano holatiga yetkaza olmasa, u haqiqiy maqsad – ilohiy yuksaklikka yetisha olmaydi, deb uqtiradi. “Anga yo'qtur umidi maqsadi kull” misrasi bilan esa bu foniyliksiz haqiqiy kamolotga intilish umidi bekorligini bildiradi. So'nggi ikki misra esa xalq og'zaki ijodidagi donishmandona hikmatlar bilan bevosita bog'lanadi. “Qaro tufroqg'a singmagan qatra” – bu xalq hayotida keng tarqalgan urug'ni yerga qo'ymasang, unib chiqmaydi, degan mazmunga juda yaqin.

Bu yerdagi “qatra” – inson ruhiyati, “qaro tufroq” esa hayot sinovlari, dunyo mashaqqatlari ramzidir. Shunga ko'ra, agar inson o'zini hayot sinovlari, dardlari ichida sinamasa, fido qilmasa, so'nggi misradagi “gul” – kamolot, ruhiy poklik, ma'naviy yuksaklik ochilmaydi.

Ushbu qit'a “Urug' yerda yotmay, daraxt chiqmas”, “Qiyinchilik ko'rmagan rohatning qadrini bilmas”, “Zahmatda rahmat bor”, “Oltinga yetmoq uchun yong'inda kuymoq kerak” singari xalqona hikmatlar bilan ruhiy mushtaraklikda. Bularning barchasi xalqning fano falsafasiga yaqin hayotiy tajribasidir. Navoiy bu fikrlarni yuksak badiiy shaklda, poetik obrazlar orqali yoritgan.

*Ne rahraveki, toji hidoyat boshidadur,
Yo'q bok anga havodisi aflok toshidin.
Hudhudki, qo'ydilar azaliy toj boshig'a,
Tushkaymu jola yog'qan ila toji boshidin?*

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 525-bet)

Mazkur qit'a Alisher Navoiyning ma'naviy yetuklik, ilohiy hidoyat va komil inson konsepsiyasiga oid qarashlarini ifodalovchi hikmatli asarlaridan biridir. Qit'ada xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan ramziy tafakkur, majoziy obrazlar hamda donishmandona xulosalar yuksak badiiy shaklda mujassamlashtirilgan.

Birinchi misrada shoir “rahrov” (haqiqat yo'lining yo'lovchisi) obrazini yaratadi. “Toji hidoyat” birikmasi tasavvufiy-adabiy an'anada ilohiy ma'rifat, ruhiy kamolot va Haq tomonidan ato etilgan ma'naviy martaba ramzi hisoblanadi. Navoiy fikricha, hidoyat tojiga sazovor bo'lgan inson hayotning turli sinov va mashaqqatlaridan qo'rqmaydi. Shu bois ikkinchi misrada: “Yo'q bok anga havodisi aflok toshidin” deya ta'kidlaydi. Bu yerda “havodisi aflok” iborasi taqdir sinovlari, hayotning kutilmagan musibatlari va zamonning o'zgaruvchan hodisalarini anglatadi.

Xalq hikmatlaridagi “Tog'ni shamol yiqitmas”, “Mustahkam daraxt bo'rdan qo'rqmaydi” kabi donishmandona qarashlar mazkur misralarning mazmuniga ruhiy jihatdan yaqin turadi.

Qit'aning keyingi qismida Hudhud obrazi markazga chiqadi. Hudhud Sharq adabiyotida qadimdan donolik, bashorat va ilohiy xabar eltuvchilik timsoli sifatida talqin qilingan. Ayniqsa, Mantiq ut-tayr an'anasida Hudhud barcha qushlarga yo'l ko'rsatuvchi pir sifatida tasvirlangan.

Navoiy ham shu adabiy-folkloriy an'anaga tayangan holda Hudhudni hidoyat va ma'rifat ramzi sifatida qo'llaydi.

Shoir: "Hudhudki, qo'ydilar azaliy toj boshig'a" deya Hudhudning bu maqomi tasodifiy emas, balki azaldan belgilangan ilohiy ne'mat ekanligini ta'kidlaydi. "Azaliy toj" obrazi insonning ma'naviy komillikka erishganligini, uning ruhiy maqomi tashqi ta'sirlardan ustun turishini anglatadi.

Qit'aning eng kuchli poetik nuqtasi so'nggi misrada namoyon bo'ladi:

"Tushkaymu jola yog'qan ila toji boshidin?" Bu yerda "jola" so'zi do'l, muz donalari ma'nosida qo'llangan. Shoir ritorik savol orqali shunday fikrni ilgari suradi: agar Hudhudning boshidagi toj ilohiy qudrat bilan berilgan bo'lsa, oddiy do'l yog'ishi uni tushirib yubora oladimi?

Albatta, yo'q. Bu obraz orqali haqiqiy ma'naviy martaba vaqtinchalik qiyinchiliklar, hasadgo'ylar yoki tashqi sinovlar ta'sirida yo'qolmasligi haqidagi g'oya ifodalanadi.

Mazkur qit'aning xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq jihati shundaki, unda xalq tafakkurida keng tarqalgan "asl qadr yo'qolmaydi", "oltin loyga tushsa ham oltin", "haqiqiy fazilat sinovda bilinadi" kabi hikmatlarning badiiy-falsafiy talqini kuzatiladi. Navoiy xalq donishmandligida mavjud bo'lgan mazkur hayotiy haqiqatni tasavvufiy va poetik tafakkur bilan boyitib, uni yuksak badiiy umumlashma darajasiga ko'targan.

Shunday qilib, ushbu qit'a xalq og'zaki ijodidagi hikmatli qarashlar, Sharq adabiyotidagi Hudhud timsoli va tasavvufiy komillik g'oyasining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan yuksak poetik namunadir. Unda ma'naviy yetuklikning sobitligi, ilohiy hidoyatning qudrati va komil inson maqomining barqarorligi xalqona hikmat ruhida badiiy ifoda etilgan.

Vahshi maosh uchun kishikim desa fikr etay,

Qismat rizosidin anga begonalik kerak.

Kunji qanoat archi erur saltanat vale,

Eldin tama'ni uzgali mardonalik kerak.

Kim ishq asiri o'lsa-ki, mumkin emas visol,

Dardu baloga hamdamu hamxonaliq kerak.

Lazzoti nafs tarki samar-i ofiyat berur,

Lek ul shajarni ekkali farzonalik kerak.

(“G'aroyib us-sig'ar”, 526-bet)

Mazkur qit'a Alisher Navoiyning xalq donishmandligi bilan eng yaqin bog'langan hikmatli qit'alaridan biridir. Asarda xalq og'zaki ijodida asrlar davomida shakllangan qanoat, sabr, qismatga rozilik va tama'dan tiyilish kabi axloqiy qarashlar badiiy umumlashma darajasiga ko'tarilgan. Qit'aning dastlabki baytida shoir: "Qismat rizosidin anga begonalik kerak" deya insonning haddan tashqari dunyoviy tashvishlarga berilib ketishini tanqid qiladi. Bu fikr xalq orasida keng tarqalgan: "Qismatidan ortiq bo'lmas", "Nasiba bo'lsa kelar", "Har kimning rizqi o'zidan" kabi hikmatlar bilan hamohangdir. Navoiy qismatga rozilikni sustkashlik emas, balki ma'naviy osoyishtalik manbai sifatida talqin qiladi.

Ikkinchi baytda xalq tafakkuridagi qanoat g'oyasi yanada chuqurlashadi: "Kunji qanoat archi erur saltanat vale, Eldin tama'ni uzgali mardonalik kerak."

Mazkur misralarda xalq og'zaki ijodidagi eng mashhur hikmatlardan biri — **"Qanoat qornini to'ydirar, tama' ko'ngilni to'ydirmas"** degan g'oya poetik shaklda ifodalangan. Shoir qanoatni "saltanat" deb ataydi. Bu tashbeh orqali moddiy boylik emas, balki ruhiy erkinlik haqiqiy boylik ekanligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, "eldin tama'ni uzgali mardonalik kerak" degan xulosa xalq pedagogikasidagi mardlik tushunchasini yangi ma'naviy mazmun bilan boyitadi.

Qit'aning keyingi qismida: "Kim ishq asiri o'lsa-ki, mumkin emas visol, Dardu baloga hamdamu hamxonaliq kerak" misralari keltiriladi. Bu yerda Navoiy inson hayotidagi sinovlarni sabr bilan qabul qilish g'oyasini ilgari suradi. Xalq maqollaridagi: "Sabrning tagi sariq oltin", "Balo kelar, sabr kerak" mazmuni ushbu baytning falsafiy asosini tashkil etadi. Shoirning nazarida komillik yo'li dard va mashaqqatlarni yengib o'tish orqali ro'yobga chiqadi.

Qit'aning so'nggi bayti esa xalq hikmatining eng teran poetik ifodalaridan biridir: "Lazzoti nafs tarki samar-i ofiyat berur, Lek ul shajarni ekkali farzonalik kerak." Bu yerda "shajar" obrazi majoziy ma'noda qo'llanib, ma'naviy kamolot daraxtini anglatadi. Shoirning fikricha, nafs istaklarini cheklash insonni osoyishtalik va komillikka olib boradi. Biroq bunday yo'lni tanlash uchun aql, donolik va iroda zarur. Ushbu g'oya xalq og'zaki ijodidagi "Nafsga erk bergan xor bo'lar", "Aql boshda, balo oyoqda" kabi hikmatlar bilan mazmunan uyg'unlashadi.

Qit'ada xalq og'zaki ijodiga xos qanoat, sabr, qismatga rozilik va tama'dan tiyilish kabi axloqiy qadriyatlar yuksak badiiy shaklda ifodalangan. Navoiy xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan ushbu qarashlarni tasavvufiy-falsafiy tafakkur bilan boyitib, ularni komil inson konsepsiyasining muhim tarkibiy qismiga aylantiradi. Shu jihatdan mazkur qit'a xalq hikmatlarining mumtoz she'riyatdagi poetik talqinini namoyon etuvchi yorqin namunadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning qit'alari xalq og'zaki ijodi an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularda xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy tajribasi, axloqiy qarashlari va estetik ideallari o'zining yuksak badiiy ifodasini topgan. Shoir xalq maqollari, hikmatlari, ramziy obrazlari va tasavvufiy qarashlarini ijodiy qayta ishlash orqali ularga yangi poetik mazmun yuklaydi. Natijada xalqona tafakkur mahsullari individual badiiy tafakkur bilan uyg'unlashib, yuksak san'at namunalariga aylanadi.

Qit'alarda uchraydigan hikmatli fikrlar, didaktik g'oyalar va ramziy timsollar nafaqat xalq donishmandligining davomiyligini ta'minlaydi, balki Navoiy poetikasining milliy asoslarini ham namoyon etadi. Shu jihatdan qaralganda, Navoiy qit'alari xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot o'rtasidagi badiiy sintezning yorqin namunasi sifatida alohida ilmiy qimmatga ega. Ularni folklorshunoslik va navoiyshunoslik nuqtayi nazaridan kompleks o'rganish o'zbek mumtoz adabiyotining milliy ildizlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: G'aroyib us-sig'ar. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1988. T. 3. – 616 b.
2. Hakimov M. Alisher Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1979. – 195 b.
3. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.

4. Mallayev N. O‘zbekiston adabiyoti tarixi. I kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965. – 659 b.
5. Tixonov N. Assalom, Navoiy! // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1967. – 19 b.
6. Shayxzoda M. Asarlar. IV jild. G‘azal mulkinging sultoni. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. – 372 b.